

ONA TILI DARSLARIDA YUKLAMALARNING O'QITILISHI

Nurmaxmatova Zebo Baxriddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ona tili va adabiyoti ta'limi fakulteti 3- bosqich talabasi. Telefon raqami :91 210 79 48

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida yuklamalarning tasnif qilinishi, 7-sinf maktab darsligida o'qitilishi shuningdek tilshunoslar tomonidan ushbu so'z turkumiga berilgan ta'riflar hamda bu yordamchi vositaning nutqdagi vazifasi haqidagi turlicha qarashlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: yuklama, qo'shimcha yuklama, so'z yuklama, yuklamalarning ma'no turlari, yuklamalarning maktab darsligida o'qitilishi.

Yordamchi so'z turkumlaridan bo'lgan yuklamalar matn tarkibida kelib, so'z yoki gap mazmuniga qo'shimcha ma'no jilolarini beruvchi so'z yoki qo'shimcha ko'rinishidagi yordamchi vositalardir. O'zbek tilining izohli lug'atida unga shunday ta'rif beriladi: "Mustaqil so'z yoki gapga turli qo'shimcha ma'no berish yoki turli grammatik munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'z yoki qo'shimcha". [Фзбек тилининг изохли луғати А.Мадвалиев таҳрири остида (2006-2008) www.ziyouz.uz] Adabiyotlarda yuklama haqidagi quyidagi ta'riflar uchraydi:

«Yuklamalar ayrim so'z yoki gapga turli ma'no ottenkasi berish uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlardir». [Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Тошкент: ФКитувчи. 1980. – 448 б.]

«Yuklama gap mazmuniga har xil qo'shimcha ma'no kiritish, ayrim gap bo'laklarini kuchaytirish uchun xizmat qiladi». [Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фзбекистон, 1992. – 400 б.]

«Yuklamalar yordamchi so'zlar razryadiga taalluqli bo'lib, ayrim so'z yoki gap bo'laklaridan biri bilan ishlatiladi va fikrning ba'zi modallik xususiyatini ifodalash uchun xizmat qiladi». (M.Sodiqova, 1966.)

«Yuklamalar so'z yoki gapga so'roq, ta'kid, kuchaytiruv, ayirish, chegaralash o'xshatish kabi qo'shimcha ma'no beradi». [Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. - T., «Fan va texnologiya», 2009. - 277 b.]

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, yuklamalar yordamchi so'zlar toifasiga kirib, so'z yoki gapning ma'nosiga qo'shimcha mazmun, turli ma'no jilolari va modallik xususiyatlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular ayrim gap bo'laklarini kuchaytirish yoki gapning umumiy mazmunini aniqlashtirishda qo'llaniladi.

Maktab darsliklarida yuklamalarning o'qitilishi ta'lim jarayonining eng muhim jihatlaridan biridir. Har bir darslikda o'quvchilar uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni taqdim etish maqsadida ma'lum bir struktura, mavzu va yondoshuvdan foydalaniladi. Ammo, darsliklar orasidagi yuklama miqdori va mazmuni, o'quvchilarning yoshiga, qobiliyatiga va ta'lim muassasasining o'qitish metodologiyasiga qarab turlicha bo'lishi kerak. O'quv jarayonining samarali bo'lishi uchun darslikdagi yuklamaning o'rinli va maqsadga muvofiq bo'lishi, shuningdek, o'quvchilarning qiziqishini saqlab qolish va bilimlarni chuqur o'zlashtirishlariga yordam berish muhimdir. Ushbu maqolada maktab darsliklarida yuklamaning qanday o'qitilishi, uning o'quvchilarga ta'siri va o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar haqida gapirib o'tamiz.

O'zbek tilida yordamchi so'zlarni ko'makchi, bog'lovchi va yuklama so'zlar birlashtiradi. Yuklama asosan gapshaklga bir butun holda, ba'zan biror sintaktik bo'lakka qo'shib, so'roq, ta'kid, taajjub kabi gramatik ma'nolarni beradi. Ba'zi yuklamalar ko'rinishi jihatidan affiksga o'xshaydi va affiks ko'rinishli yuklamalar ham deyiladi. Bu ko'rinishdagi yuklamalar; -mi, -gina, -kina, -qina (g'ina), -oq/-yoq, -ov/-yov so'zga qo'shib yoziladi. yuklamalari esa chiziqcha bilan yoziladi. Axir, faqat, nahotki, hatoki, xuddi, ham, esa kabi yuklamalar bo'lak yoziladi.[Mengliyev, Xaliyorov,2018:233]

Hozirgi o'zbek adabiy tili darsliklarida yuklamalar ma'no jihatiga ko'ra quyidagicha tasnif qilingan:

1. So'roq va taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a(-ya).
2. Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari: -ku, -u(-yu), -da, -oq(-yoq), -ki, -kim, axir, hatto, hattoki, nahot, nahotki, tim, shir, g'irt, liq, lim, g'raq, jiqqa.
3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: -gina (-kina, -qina), faqat, faqatgina, yolg'iz.
4. Aniqlov yuklamalari: xuddi, naq.
5. Gumon yuklamasi: -dir.
6. Inkori yuklamasi: na... na. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, hozirgi o'zbek tilida yuklamalar matnga qo'shimcha emotsional-ekspressiv jilo berishga xizmat qiluvchi muhim vositalardir.

Yuklamalar 2 turli bo'ladi:

1. So'z yuklamalari: Axir, hatto, faqat, nihoyatda
2. Qo'shimcha yuklamalar: mi, -gina, -kina, -qina (g'ina), -oq/-yoq, -ov/-yov. Qo'shimcha yuklamalar so'zga qo'shib yoki chiziqcha bilan ajratilib yozilishi mumkin.

7- sinf ona tili darslining "Kelajak kasblari" mavzusi tarkibidan yuklamalar haqida ma'lumotga ega bo'lish ham o'rin olgan. Kitobda bu qism 66-67- betlarni tashkil etadi. Davr va o'quvchilarning bilim salohiyatining yuqoriligi o'qituvchilardan darslarga yanayam diqqatli bo'lishini talab etmoqda. Bugungi kunda darslarni tashkil etishda o'qituvchidan innovatsion usullarni qo'llay olishi, o'quvchi faolligini oshirishi, zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi

va samarali baholash tizimlarini joriy qilishi talab etilmoqda. Bu talablar zamon talablari, o'quvchilarning ehtiyojlari va xalqaro standartlarga moslashish zaruratidan kelib chiqmoqda. Bundan ko'rinadiki: endi ona tili darslarini tashkil etishda an'anaviy dars dasturidan emas, balki noan'anaviy dars dasturidan foydalanish kerak. Yangi ona tili darsliklari eski darsliklardan tubdan farq qiladi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi darsliklarda 4K yondashuvi asosiy o'rinni egallagan va grammatikadan biroz ortga chekinilgan. 7- sinf ona tili darsligida yuklama mavzusi qisqa va lo'nda, kundalik hayot tarzimizda ko'p ishlatiladigan yuklamalar berilgan. Xo'sh, biz bo'lajak o'qituvchilar yuklamar haqidagi mavzumizni qanday qilib qiziqarli va samarali tashkil eta olamiz? Bugungi kun o'quvchilariga qanday usulda dars o'tsak tushunarliroq bo'ladi?

Bu kasb egalari hamma zamonlarda ehtiyoj katta bo'lgan. ... eng qulay, shohona sharoitlarda, to'kin-sochinlikda umr kechiradigan odam ham kasal bo'ladi-ku.

Zamonaviy tibbiyot shifokorlar oldiga yangi texnologiyalardan unumli foydalana olish shartini... qo'yyapti. Yangi texnologiyalar tashxis va muolaja jarayonini yengillashtirib ... qolmay, aniqlik darajasini ... kuchaytiradi. Bunday ko'nikmaga ega shifokorga esa talab yuqori bo'lishi tabiiy

Qo'yish uchun: -kina, -ham, -gina, -go'yo, -da, -axir, -mi, -xuddi.

Darslikda yuklama bilan bog'liq ushbu topshiriq keltirilgan. Bu topshiriqni o'quvchilarga shunchaki ko'chirib yozing deb emas, balki sinfni kichik to'rt guruhga bo'lib va topshiriqdagi to'rtta gap har bir guruhga bittadan bo'lib beriladi. Endi bu topshiriq uchun besh daqiqa emas, balki 2 daqiqa yetarli bo'ladi. O'qituvchi topshiriqni bajaragan o'quvchilardan nega aynan bu so'zni tanlashganligini so'raydi, bu esa o'quvchilarni mavzuga chuqurroq olib kiradi. (Darslarda raqobatli o'yinlarni tashkil etish aksariyat hollarda samarali natija beradi, chunki raqobat bor joyda intilish bo'ladi). O'qituvchi tomonidan qoida tushuntiriladi va qoida bilan bog'liq ikkinchi topshiriqni bajarish vazifasi o'quvchilarga yuklatiladi. O'qituvchi yuklamalar qatnashgan bir nechta gaplarni doskaga yozishi va o'quvchilardan gaplarda ishtirok etayotgan yuklamalar qaysilar ekanligini va ushbu gapga qanday ma'no yuklayotganligini so'rashi mumkin. Mavzuni yanayam mustahkamlash uchun esa “ Kahoot! “ yoki boshqa dasturlarda turli test topshiriqlarini tuzishi mumkin. Masalan: Menda... ruchka bor. A) faqat B) go'yo C) xuddi. Bu kabi o'yinlarni tashkil etish o'qituvchining dars o'tish mahoratiga bog'liq. Vaqtni to'g'ri taqsimlagan holda darsga yondashish kerak. Darslarda yuklama mavzusini qiziqarli va samarali o'tish uchun bir qancha topshiriqlardan va metodlardan foydalanishimiz mumkin.

“ Yuklama bor” metodi 7-sinf o'quvchilari uchun mos bo'lib, o'qituvchi tomonidan tayyorlanadi. O'quvchilarga yuklama ishlatilgan va ishlatilmagan gaplar beriladi. Ular bu ikki gapdagi ma'no farqini izohlab berishadi.

“U ketdi.”

“U ham ketdi.”

O‘qituvchi tomonidan ikkinchi gapda yuklama qanday ma’no yuklayotganligi so‘raladi.

Amaldagi darsliklarda yuklama mavzusiga qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Bu holat o‘quvchilarga mavzuning asosiy tushunchalari haqida umumiy tasavvur berishga xizmat qilsa-da, uning murakkablik darajasini hisobga olgan holda, darslikdagi materiallar o‘qituvchidan qo‘shimcha izohlar, amaliy misollar va faol metodlarni qo‘llashni talab qiladi. Darslikning imkoniyatlari o‘quvchi uchun yo‘nalish beruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchining vazifasi esa ushbu yo‘nalishni chuqurlashtirish, darsni boyitish va har bir o‘quvchining mavzuni anglashiga individual yondashuv bilan erishishdir. Shu tarzda, yuklama mavzusi yuzasidan chuqurroq bilim berish, o‘quvchilarda tilga nisbatan ongli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yuklamaning maktab darsligida o‘qitilishi tilshunoslik nazariyasi bilan amaliy nutq malakalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu mavzuni o‘quvchilarga sodda, tushunarli va kontekst asosida yetkazish, ularning fikrini aniq va lo‘nda ifoda eta olish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Yuklamani o‘rgatishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, misollar asosida talqin va interaktiv topshiriqlar muhim o‘rin tutadi. Shu yo‘sinda darsliklar mazmunini boyitish, o‘quvchilarda grammatika va nutq madaniyati bo‘yicha mustahkam asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Фзбек тилининг изоҳли луғати А.Мадвалиев таҳрири остида (2006-2008)
wwwziyouz.uz

2.Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Тошкент: Фқитувчи. 1980. – 448 б

3.Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фзбекистон, 1992. – 400 б.

4.Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. - T., «Fan va texnologiya», 2009. - 277 b

5. (Mengliyev, Xaliyrov, 2018:233)